

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon universiteti rektori

D.Sh Xodjayeva

30-iyun 2025 yil

**INKLYUZIV TA’LIM. GOSPITAL PEDAGOGIKA
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110300-Maxsus pedagogika (surdotarjimonlik faolyati) 60110300-Maxsus pedagogika (surdopedagogika) 60110300-Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika) 60111300-TeXnologik ta'lim 60111100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi 60110900-Xorijiy til va adabiyoti (ingiliz tili) 60110800-Onatili va adabiyoti (rus tili va adabiyoti) 60110700-O'zbek tili va adabiyoti 60110600-Musiqa ta'limi 60110500-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi 60110200-Maktabgacha ta'limi 60110100-Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) 60110900- Xorijiy til va adabiyoti (nems tili) 60110600-Matematika va informatika

Fan/modul kodi IT.GP1304	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	Kreditlar 4	
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Inklyuziv ta'lim Gospital pedagogika	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim va uzoq davom etuvchi kasallik bilan og'rikan bolalarni shifoxona ta'limi muhitida ta'lim-tarbiya berishning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda inklyuziv ta'lim va shifoxona ta'limi ijtimoiy va ta'limiy siyosatning sifatli ta'limning yangi bosqichi sifatidagi nazariy va amaliy g'oyalarni ishlab chiqish; inklyuziv ta'lim va shifoxona sharoitida alohida ehtiyojlarga ega bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlashning ijobiy xorijiy tajribasini tahlil qilish; inklyuziv ta'lim va uzoq muddatli davolanish jarayonida alohida ehtiyojlarga ega bolalarni qulay ta'limiy muhitini tashkil etish, shifoxonadagi ta'lim sharoitida ta'limiy-tarbiyaviy va korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni rejalashtirish va tashkil etish, shifoxonadagi ta'lim berish sharoitida ta'limiy-tarbiyaviy va korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning yo'llari, usullari, vositalari va mazmunini tanlash va uni asoslash; inklyuziv ta'lim va shifoxonadagi ta'limning aniq pedagogik muammolarini hal qilishda pedagogik hodisani tavsiflash, izohlash, prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish; talabalarda insonparvarlikka yo'naltirilgan professional dunyoqarashni, alohida yondoshishlarga, e'tiborga muhtoj bolalar muammolarini tushunish va qabul qilishni shakllantirish; alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar bilan ishlashga shaxsiy tayyorgarligini va ularga pedagogik yordamini ko'rsatish uchun bilim olish istagini shakllantirishdan iboratdir.</p> <p>Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Maxsus talim ehtiyojlari va nogironlik fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Sauthgempton universiteti (Buyuk Britaniya)ning Maxsus talim ehtiyojlari va nogironlik fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS</p>			

World University Rankings 2024 bo'yicha 80-o'rinni egallagan bo'lib, o'z sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Sauthgempton universitetining Psixologiya kursida nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy munosabatlarni tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar BKM holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-modul. Inklyuziv ta'limning metodologik va nazariy asoslari

1-Mavzu. Inklyuziv ta'lim kursining predmeti, maqsadi va vazifalari, ob'ekti, tamoyillari

Inklyuziv ta'lim kursining maqsadi va vazifalari, inklyuziv ta'limning mohiyati, inklyuziv ta'limning tamoyillari, inklyuziv ta'lim madaniyati. Inklyuziv ta'limga bo'lgan extiyojlar va uning sabablari haqida tushuncha berish. Inklyuziv va integrasion ta'limga ta'rif. Inklyuziv va integrasion ta'limning qiyosiy taxlili. Integrasiya turlari jismoniy integrasiya, funksional integrasiya, ijtimoiy integrasiya. Rehabilitasiya xaqida tushuncha.

2-mavzu. Inklyuziv ta'limning xuquqiy asoslari

Inklyuziv ta'lim bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar. "Inson huquqlari umumjaxon Delorasiyasi", Salomanka bayonoti, "Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi" O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori. (PQ-4860, 13.10.2020 y). Inklyuziv ta'limning psixopedagogik shartlari. Inklyuziv ta'limning tashkiliy shartlari. Differensial ta'lim tushunchasi va mohiyati. Inklyuziv va tabaqalashtirilgan ta'limning qiyosiy tavsiflari.

II –modul. Turli anomaliyalari mavjud bolalar uchun inklyuziv ta'lim strategiyalari va ularni amalga oshirish shart-sharoitlari.

3-Mavzu. Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish

Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar haqida tushuncha berish. Analizatorlarida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish. Intellektida va

harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablariga saralash va ularga qo'yiladigan talablar.

4-mavzu. Sensor nuqsonli bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalash

Eshitish nuqsonining darajalari va turlari. Koxlear implantli bolalar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalash. Tug'ma va orttirilgan ko'rish nuqsonlari. Ko'rishida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosligi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalash.

5- mavzu. Nutqida va harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalash.

Nutq nuqsonlari haqida umumiy tushincha. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalash. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari . BSFning kelib chiqish sabablari va turlari. Tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish va tabiyalash.

6-mavzu. Turli darajadagi intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bolalar, autistik spektr buzilishlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim strategiyalari va ularni amalga oshirish shart-sharoitlari.

Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlash shart-sharoitlari va strategiyalari.

Autistik spektr buzilishlariga ega bo'lgan bolalar tavsifi. Autistik spektr buzilishlariga ega bo'lgan bolalarni ta'limiy ehtiyojlari va imkoniyatlari. Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektr buzilishlariga ega bo'lgan bolalarni o'qitish uchun maxsus ta'lim sharoitlarini yaratish. Dinamik integratsiya modeli.

7-mavzu: Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotida korreksion dasturini ishlab chiqish algoritmi. Inklyuziv ta'limiy muhitni yaratishda pedagoglar jamoasining faoliyat mazmuni. Inklyuziv ta'limiy muhitni yaratishda ota-onaning ishtiroki. Tarmoqli shakllar inklyuziv ta'limiy muhitni yaratish manbalari sifatida.

III-modul. "Gospital pedagogika" fanining nazariy asoslari

8-mavzu. "Gospital pedagogika" fanining tarixi, mazmuni va mohiyati.

«Gospital pedagogika» faniga kirish, uning vazifalari va tarixi. Horijiy mamlakatlarda gospital pedagogika an'analari va xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasida «Gospital pedagogika»ning rivojlanishi. «Gospital pedagogika» pedagogik amaliyotga joriy etishning dolzarbligi. Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarning huquqlari va ta'limga bo'lgan ehtiyojlari. Gospital pedagogikaning asosiy tamoyillari.

9-mavzu. «Gospital pedagogika» fanining uslubiy asoslari

Shifoxonalarda uzoq davolanuvchi maktab o'quvchilari uchun tashkil etilgan maktablarda o'qitishning o'ziga xos hususiyatlari. Bemor bolalarga psixo-pedagogik yondashishning ahamiyati. Alohida ehtiyojlarga ega bolalarning shaxs xususiyatlari va kognitiv rivojlanishi uchun integrasiya tizimining afzalliklari. Gospital maktablar – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'priksifatida.

10-mavzu. «Gospital pedagogika» fanining o'quv materiallari texnologiyalari.

Maxsus ehtiyojlarga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'limiy muassasalarda psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash texnologiyasi. Nafas olish tizimi kasalliklari (sil, bronxial astma) bilan og'rikan bolalarni o'qitishda pedagogik mahoratning o'ziga xos hususiyatlari. O'quv materialini moslashtirish texnologiyalari.

IV-modul. Shifoxonada uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta'limiy muhitni yaratishning o'ziga xos xususiyatlari

11-mavzu. Genetik va irsiy kasalliklar haqida tushuncha.

Tibbiyot shifoxonalarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlash shakllari va usullari. Genetik kasalliklar (BSP) bilan og'rikan bolalarni o'qitishda pedagogik mahoratning o'ziga xos hususiyatlari. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'limiy ehtiyojlari va imkoniyatlari. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalarni shifoxonada o'qitish jarayonida qo'llab-quvvatlash shart-sharoitlari va strategiyalari.

12-mavzu. Organizmdagi moddalar almanishuvi buzilishi haqida tushuncha.

Endokrin tizimining kasalliklari (qandli diabet) bilan og'rikan bolalarni o'qitishda pedagogik mahoratning o'ziga xos hususiyatlari. Bosqichma-bosqich qo'shish texnologiyasi. Maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni ta'limiy muassasalarda psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash texnologiyasi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limda gospital ta'lim texnologiyalari.

13-mavzu. Saraton kasalliklari haqida tushuncha.

Ta'limdagi qiyinchiliklar va ta'lim olish qobiliyatining buzilishi o'rtasidagi farqlanish. Saraton kasalliklari (bosh miya o'smalari) bilan og'rigan bolalarni o'qitishda pedagogik mahoratning o'ziga xos hususiyatlari. Individual ta'lim yo'nalishini ishlab chiqish tamoyillari.

14-mavzu. Shifoxonalardagi maktablarda ota-onalar bilan hamkorlik.

Shifoxonalardagi maktablarda talimiy muhitni yaratishda ota-onaning ishtiroki va ular bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish tamoyillari. Tarmoqli shakllar inklyuziv talimiy muhitni yaratish manbaalari sifatida. Saraton kasalliklari (qon va limfa o'smalari) bilan og'rigan bolalarni o'qitishda pedagogik mahoratning o'ziga xos hususiyatlari. Tibbiyot muassasalari shifoxonalarda uzoq muddatli davolanayotgan bolalar bilan ishlashda pedagogik faoliyatni individuallashtirish yo'llari.

15-mavzu: Tibbiyot muassasalari statsionarlarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratish

Tibbiyot muassasalarida uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishning asosiy ta'limiy omillari. Tibbiyot muassasalari stationarlarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhit komponentlari va ularni tashkil etish hususiyatlari. Tibbiyot muassasalarida uzoq muddat davolanayotgan bolalarni o'qitishning o'ziga xos hususiyatlari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Inklyuziv ta'lim kursining predmeti, maqsadi va vazifalari, obykti va tamoyillari.
2. Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari
3. Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish.
4. Sensor(eshitishida yoki ko'rishida) kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim strategiyalari va ularni amalga oshirish shart-sharoitlari.
5. Nutqida va harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalash.

6. Turli darajadagi intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim strategiyalari va ularni amalga oshirish shart-sharoitlari.
7. O'quv muhitini yordamchilari, O'quv muhitida hamkorlik ishlari*
8. Autistik spektr buzilishlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim strategiyalari va ularni amalga oshirish shart-sharoitlari.
9. Tibbiyot muassasalari stationarlarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratish va qo'llab-quvvatlash
10. Sog'lomlik tushunchasi. Bolalar sog'ligidagi zamonaviy muammolar. Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoqlarga qo'yiladigan talablar.
11. Ta'lim va salomatlik sohasidagi O'zbekiston Respublikasining Davlat siyosati va qonunlari. Pedagog talabalarda pedagogik-tashkiliy, psixo-pedagogik, axborot-o'qitish bilim va malakalarini shakllantirish.
12. Sil va bronxial astma kasalliklari bilan og'rigan maktab o'quvchilari bilan mashg'ulot o'tish tamoyillari.
13. Ichki sekretsiya bezlari kasalliklari (qandli diabet) bilan og'rigan maktab o'quvchilari bilan mashg'ulot o'tish tamoyillari.
14. Genetik kasalliklar bilan og'rigan o'quvchilar bilan bilan mashg'ulot o'tish tamoyillari.
15. Saraton kasalliklari (bosh miya o'smalari) bilan og'rigan o'quvchilar bilan bilan mashg'ulot o'tish tamoyillari.
16. Saraton kasalliklari (qon va limfa o'smalari) bilan og'rigan o'quvchilar bilan bilan mashg'ulot o'tish tamoyillari.
17. Autoimmun kasalliklari bilan og'rigan o'quvchilar bilan bilan mashg'ulot o'tish tamoyillari. Tibbiyot muassasalari stationarlarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratish va qo'llab-quvvatlash.

Amaliy mashg'ulotlarda dasturlarni tahlil qilish, individual, frontal korreksion mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash, shifoxonalardagi maktablarda mashg'ulotlarni kuzatish va taxlil qilish ishlari olib boriladi. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tiladi, pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llaniladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;

- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhviy o'quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- mashg'ulotlarning metodik ishlanmalarini tayyorlash.

Ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning hususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Alohida yordamga muhtoj shaxslarni inklyuziv ta'lim konsyepsiyasining mohiyati va asosiy qoidalari.
2. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim va tarbiyalash konsepsiyasi.
3. Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini xalqaro hujjatlarda tahlil qilish.
4. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy bazasini tahlil qilish.
5. Inklyuziv va birgalikda o'qitish: ularning asosiy farqlarini asoslash.
6. Alohida yordamga muhtoj bolani samarali inlyuziyasi uchun tashqi sharoitlar.
7. Alohida yordamga muhtoj bolani samarali inlyuziyasi uchun ichki sharoitlar.
8. Inklyuziv ta'lim modellari: tahlili va xususiyatlari.
9. Alohida yordamga muhtoj bolalarning inklyuziv ta'limi yangi ta'limiy amaliyot sifatida.
10. Imkoniyati cheklangan bolalarni samarali inklyuziv ta'lim olishning asosiy shartlari.

11. Turli yoʻnalishdagi ilmiy tadqiqotlarda inklyuziv taʼlim muammolarini oʻrganish.
12. Oʻzbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv taʼlim.
13. Chet elda alohida yordamga muhtoj bolalarning inklyuziv taʼlimi.
14. Inklyuziv taʼlimni amalga oshirish jarayoni alohida yordamga muhtoj bolaning shaxsini rivojlanishining xususiyatlari
15. Alohida yordamga muhtoj bolalarda rivojlanishdagi nuqsonning chuqurligi va tuzilishiga qarab inklyuziya modellarini tanlash.
16. Inklyuziv taʼlim gʻoyalarini amaliyotga tadbiiq etish boʻyicha turli guruhlarga mansub respondentlarning fikrlarini aniqlashga qaratilgan sostiologik tadqiqotlar.
17. Integrasiyalashgan taʼlimni amaliyotga tadbiiq etish boʻyicha turli guruhlarga mansub respondentlarning fikrlarini aniqlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar.
18. Rivojlanish muammolari boʻlgan bolalar uchun inklyuziv taʼlimni keng taʼlimiy amaliyotiga joriy etish algoritmlari.
19. Alohida yordamga muhtoj bolani umumtaʼlim maktabi yoki maktabgacha tashkilotda inklyuziv taʼlim sharoitida oʻqishga moslashishida oila va maktabning oʻrni.
20. Umumtaʼlim tashkilotlarida alohida yordamga muhtoj bolalar uchun integrasiyalashgan taʼlimni amalga oshirishning asosiy bosqichlari.
21. Alohida yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashda gospital pedagogika konsyepsiyasining mohiyati va asosiy qoidalari.
22. Shifoxonalarda uzoq davolanuvchi maktab oʻquvchilarini taʼlim va tarbiyalash konsepsiyasi.
23. Xorijiy mamlakatlarda gospital pedagogikaning huquqiy asoslarini xalqaro hujjatlarda tahlil qilish.
24. Oʻzbekistonda gospital pedagogikaning meʼyoriy-huquqiy bazasini tahlil qilish.
25. Oʻzbekiston Respublikasida gospital pedagogikaning rivojlanishi.
26. Shifoxonalarda uzoq davolanuvchi maktab oʻquvchilarni samarali taʼlimi uchun tashqi sharoitlar.

	<p>27. Shifoxonalarda uzoq davolanuvchi maktab o'quvchilarni samarali ta'limi uchun ichki sharoitlar.</p> <p>28. Gospital ta'lim modellari: tahlili va hususiyatlari.</p> <p>29. Shifoxonalarda uzoq davolanuvchi maktab o'quvchilarni ta'limi yangi ta'limiy amaliyot sifatida.</p> <p>30. Shifoxonalarda uzoq davolanuvchi maktab o'quvchilarini samarali ta'lim olishning asosiy shartlari.</p> <p>31. Turli yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda gospital pedagogika muammolarini o'rganish.</p> <p>32. Chet ellardagi shifoxonalarda uzoq davolanuvchi maktab o'quvchilarining ta'limi.</p> <p>33. Gospital ta'limni amalga oshirish jarayoni alohida yordamga muhtoj bolalarning shaxsi rivojlanishining hususiyatlari.</p> <p>34. Shifoxonalarda uzoq davolanuvchi maktab o'quvchilarini rivojlanishida ulardagi kasalliklarining chuqurligi va tuzalishiga qarab pedagogik modellarini tanlash.</p> <p>35. Gospital ta'lim g'oyalarini amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha turli guruhlarga mansub respondentlarning fikrlarini aniqlashga qaratilgan sosiologik tadqiqotlar.</p> <p>36. Gospital ta'limni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha turli respondentlarning fikrlarini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy tadqiqotlar.</p> <p>37. Uzoq davom etuvchi kasalliklari bo'lgan bolalar uchun gospital ta'limni keng ta'limiy amaliyotiga joriy etish algoritmlari.</p> <p>38. Uzoq davom etuvchi kasalliklardan tuzalgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida o'qishga moslashishida oila va maktabning o'rni.</p> <p>39. Uzoq davom etuvchi kasalliklardan tuzalgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida o'qishga moslashishidagi psixologik muammolarni bartaraf etish tamoyillari.</p> <p>40. Uzoq davom etuvchi kasalliklardan tuzalgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida o'qishga moslashishidagi nevrologik muammolarni bartaraf etish tamoyillari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash, glossariy tuzish va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zbekistonda va xorijda inklyuziv ta'lim va gospital ta'lim tizimini shakllantirish bosqichlari; maxsus ta'lim sohasidagi davlat siyosati, gospital ta'limni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar; alohida yordamga muhtoj bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari; inklyuziv ta'lim va gospital ta'limni tashkil etishning modellari,

	<p>shakllari, zamonaviy texnologiyalari; umumta'lim tizimida uzoq davolanishga muhtoj bolalar uchun maxsus ta'lim sharoitlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim);</p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabada inklyuziv ta'lim va gospital ta'lim falsafasi; bolani ijtimoiy moslashuvi ma'lum bilim va ko'nikmalar bilan "qurollantirish"dan afzalligi; sinf yoki guruhdagi o'quvchi yoki tarbiyalanuvchilar, shu jumladan uzoq davolanishga muhtoj bolalar, ularning ota-onalari va ta'limiy jarayonni boshqa qatnashchilari bilan birga faoliyat yuritish, muloqot qilish; shifoxonada o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish tamoyillari, usul va texnologiyalari haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma); • kasbiy muammolarni hal qilishda psixo-pedagogik diagnostika usullaridan foydalanish; inklyuziv ta'lim va uzoq davolanishga muhtoj bolalar uchun individual ta'lim yo'nalishi va dasturlarini ishlab chiqish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash; inklyuziv ta'lim va uzoq davolanishga muhtoj bolalarning ta'lim ehtiyojlarini qondiradigan interfaol korreksiya va rivojlanish muhitini tashkil etish; inklyuziv ta'lim va gospital ta'lim sharoitida pedagogik faoliyatni amalga oshirish; alohida ta'limga muhtoj bolalar, ularning ota-onalari va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish; gospital ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalariga maslahat berish malakalariga ega bo'lishi kerak; (malaka).
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadiylar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. R.Sh.Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. 2. V.Raxmonova . Maxsus pedagogika:Mutaxassislikka kirish// o'quv qo'llanma , G'.G'ulom-2004. 3. Jarrohlik kasaliklaridagi va jaroxatlanishdagi birinchi yordam// o'quv qo'llanma, Ibn Sino-2010. 4. Ibragimova D. Tibbiy muolajalarni bajarish uslublari// o'quv qo'llanma, Sharq-2013

	<p>Qo‘shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. T.: “Adolat”, 2017-yil. 2. Sharipova D.D. Agar bolam sog‘lom bo‘lay desangiz . Toshkent “ ILM ZIYO” – 2006 3. G‘. Jalolov. S. Tursunov. “ Bolalar kasalliklari va ularning anatomik – fiziologik xususiyatlari. Abu. Ali. ibn Sino nomidagi tibbiyot nashiryoti.Toshkent. 2003. 4. Sharipova D. Q. Sodiqov, G. Shaxmurova, T.L. Arbuzova, N. Sh. Mannapova – “ Valeologiya asoslari”T – 2010 y. O‘quv qo‘llanma. <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi sayti. 2. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi sayti. 3. http://www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali. 4. http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. 5. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma‘lumotlar milliy bazasi sayti 6. http://www.kun.uz – O‘zbekiston va jahon yangiliklari, eng so‘nggi xabarlar sayti.
7.	<p>Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidani ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sullar:</p> <p>S.Umarova – QDU, Pedagogika fakulteti, “Maxsus pedagogika” kafedrası v.b dotsenti</p> <p>I.Haydarov – QDU, Pedagogika fakulteti, “Maxsus pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD).</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>F.R.Teshaboyeva – QDU, Pedagogika fakulteti, “Maxsus pedagogika” kafedrası dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD).</p> <p>M.I.Rahimova – QDU, Pedagogika fakulteti, “Maxsus pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi.</p>

--	--